

## RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA BOLALARNI AQLIY RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

**Muhammadjanova Nozima Turg'unboy qizi**

Namangan davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada rivojlantiruvchi markazlarda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini aqliy rivojlantirish texnologiyalari to'g'risida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** MTT, savodxonlik, sezgi, bilish, rivojlantiruvchi markazlar.

### ABSTRACT

This article describes the technologies of mental development of preschool children in developmental centers.

**Keywords:** MTT, literacy, intuition, knowledge, developmental centers.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны технологии психического развития детей дошкольного возраста в центрах развития.

**Ключевые слова:** МТТ, грамотность, интуиция, знания, центры развития.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan rivojlantiruvchi markaz faoliyatlarida bolalarga:

- muammolarni eta olish,

- ijodiy, tafakkur

- ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish, odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam haqidagi g'amxo'rlik qilish kabilar o'rgatib boriladi. Oqilona tashkil etilgan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga bo'lgan muhabbatlarini rivojlantiradi.

Bugun maktabgacha ta'limda rivojlanuvchi sohalar va markazlar o'ziga xos tizimda tashkil etilmoqda. Sababi shundaki, o'rganishning eng muhim va boshlang'ich yillari tug'ilishdan boshlanadi. Bola hayotining dastlabki uch yili tilni o'zlashtirish, ijtimoiylashuv va o'rganishga munosabat uchun poydevor yaratishi juda zarur sanaladi. Rivojlanish paytida bola ongi juda kuchli ishlaydi, tez yodlab qoladi, ma'lumotni juda samarali o'zlashtira oladi. Miya va aqliy qobiliyat birinchi yillarda eng tez o'sadi. Rivojlanishga mos dasturlarga ega yuqori sifatli va yaxshi tayyorlangan

o'qituvchilar va maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarning ta'lim natijalarini yaxshilashga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun maktabgacha ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi markazlar faoliyati shakllantirilmoqda.

Maktabgacha ta'limni qamrab oladigan rivojlanish sohalari turlicha. Biroq, odatda quyidagi asosiy mavzular taklif etiladi.

- Shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va hissiy rivojlanish
- Muloqot (shu jumladan imo- ishora tili), gapirish va tinglash
- Dunyo bilimi va dunyoni tushunish
- Ijodiy va estetik rivojlanish
- Matematik tushuncha
- Jismoniy rivojlanish
- Jismoniy salomatlik
- O'yin
- Jamoaviy ish
- O'z-o'ziga yordam ko'rsatish ko'nikmalari
- Ijtimoiy ko'nikmalar
- Ilmiy fikrlash

Savodxonlik Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so'ng ta'limiy faoliyatlar, o'yinlar va boshqa faoliyatlar orqali amalga oshirildi. Bola har doim buyumlar, hodisalar orasida bo'ladi. Doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab kuradi, nimagadir quloq soladi, shu tarzda bola dunyoni anglaydi. Tevarakatrof buyum va narsalar bolalarining sezgi organlariga, analizatorlarga ta'sir etadi va sezgi hosil bo'ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. Bolada aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, eng oddiy faoliyat usullari predmetlarini tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

Bu ko'nikma, malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlarga bo'lib, bola bilimlarni chuqur egallab olishga yordam beradi.

Pedagogika, psixologiya fani aqliy tarbiya vazifalarini samarali hal etish, birinchi navbatda, bolaning imkoniyatlarini to'g'ri foydalanishni, ikkinchi tomondan bola organizmining charchashiga sabab bo'ladigan ortiqcha zo'riqish bo'lmasligi kerak, degan fikrni ilgari suradi. To'g'ri tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli pedagoglarning vazifasi muayyan maqsadni ko'zlab, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoitni yaratish bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali so'ng ta'limiy faoliyatlari va boshqa faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari, ularni aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy

malaka va ko'nikmalarini egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun, bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilar:

10. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini ilmiy dunoqarashini shakllantirish. Bola tevarak- atrofdagi narsalar, ularning vazifasi, sifati, xossalari haqida, qaysi materiallardan foydalanganligi, tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak.

11. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq va boshqalar. Bilimga doir nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning erkin vazifasidir.

12. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlning sinchkovligini rivojlantirish va shu asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

13. Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, ya'ni oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishlari ularni maktab ta'limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol bo'lib ulg'ayishlariga, ularda milliy qadriyatlar va urf-odatlariga sodiq bo'lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. "Ilm yo'li" variativ dasturi. Toshkent "Sano-standart" 2020 yil. 13,
2. Maktabgacha pedagogika f. r. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M. .N. A'zamova "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent – 2019
3. Ro'ziyeva, M. Y. (2015). Some peculiarities of white colour in uzbek folklore. In Applied and Fundamental Studies (pp. 277-285).
4. Botirova Sh.I. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterivyangi ustuvor yo'nalish sifatida Academic research in educational sciences 1/3 2020